

**MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA INTERFAOL
O'YINLARNI TASHKILYIY METODIKASINI QO'LLASH
SAMARADORLIGI****Shoyimova Gulzoda Abduraximovna**

Termiz Davlat Pedagogika instituti 3-bosqich talabasi

Ilmiy raxbar: Shuxrat Oqboyevich Xolmurodov.

Matematika va informatika kafedrasida katta o'qituvchisi.

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha ta'lim muassasalari sifatini va samaradorligini oshirish bo'yicha usul va metodik tamoyillar ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Interfaol usullar, pedagogik mahorat, ta'lim sifati, o'qitish texnologiyalari.

Respublikamizda barkamol avlod ta'lim-tarbiyasiga oid bir qator vazifalar amalga oshirilayotgan bo'lib, bu jarayon xar tomonlama rivojlangan intellektual salohiyatli yoshlarni tarbiyalashga zamin xozirlamoqda.

Barkamol avlodni shakllantirish dastlab oilada, so'ngra maktabgacha ta'lim muassasasida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunining 11-moddasida: «Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Bu ta'lim olti-etti yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qat'iy nazar, boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi», deyilgan.

O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturida maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining birinchi turi ekanligi va maktabgacha tarbiyani rivojlantirish uchun zarur bulgan vazifalar qatorida maktabgacha ta'limning samarali psixologik pedagogik-uslublarini izlash va joriy etish kerakligi belgilangan. Shuningdek, 4.9-bandida «Barcha bosqichdagi ta'lim jarayon-larini kompyuterlashtirish va axborotlashtirish amalga oshiriladi», deb ta'kidlangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2707-son qarori bilan «Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha 2017-2021 yillarga mo'ljallangan dastur» tasdiqlandi va mazkur Dasturning asosiy maqsadli vazifalari va yunalishlari qatorida maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan



yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga jaxon amaliyotida keng qullaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish vazifalari belgilangan.

Yuqorida bayon qilingan dalillar maktabgacha ta'lim muassasalarining ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish, mashg'ulotlar jarayonida interfaol o'yinlar va multimedia vositalaridan foydalanish, tarbiyalanuvchilarning kompyuter savodxonligini shakllantirish, ularni kompyuterdan elementar tarzda foydalanishga urgatish va maktab ta'limiga tayyorlash dolzarb vazifalardan biri ekanligini kursatadi. Respublikamizda qabul kilingan bir qator me'yoriy xujjatlarda, ta'lim sohasiga yangi innovatsion texnologiyalardan, jumladan, multimedia texnologiyasidan foydalanish dolzarb masala ekanligi qayd etilgan. Xozirgi kunda ta'lim sohasida multimediaga asoslangan elektron darslik, qullanma va turli elektron didaktik vositalar yaratilmoqda xamda ulardan foydalanib kelinmoqda. Ammo maktabgacha ta'lim muassasalari ta'lim-tarbiya jarayonida multimedia texnologiyasidan foydalanish va shu asosda mashg'ulotlar jarayonida innovatsion uslublarni tatbiq etish imkoniyatlari yetarlicha ishlab chiqilmagan. Uzlüksiz ta'lim tizimining birinchi turi bulgan maktabgacha ta'limda xam innovatsion texnologiyalarni izlash, ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish bugungi kunning dolzarb vazifasi xisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarining ta'lim-tarbiya jarayoniga foydalanishga muljallangan innovatsion texnologiyalaridan biri ta'limiy multimedia texnologiyasi xisoblanadi. Multimedia texnologiyasi zamonaviy axborot texnologiyasining tez rivojlanayotgan yunalishlaridan biri bulib, quyidagi tashkil etuvchilaridan iborat: matn, jadval, grafika, musika, bezak, animatsiya, audio, video. Muallifning fikricha, ta'limda interfaol o'yinlar, multimedia texnologiyasi va vositalaridan foydalanish uslubi «multimediaviy xujum» uslubi deb nomlandi.

Xar bir pedagogik, ta'lim va boshqa texnologiyalarning uz uslubi bulgani kabi ta'limiy multimedia texnologiyasining xam uz uslubi mavjud. «Multimediaviy xujum» uslubi ta'lim jarayonida foydalanishga muljallangan bulib, bu uslubdan foydalanishda ta'lim beruvchi avvalo urganiladigan materialga tegishli multimediiali interfaol dasturiy maxsulot tayyorlaydi. Bola miyasiga urganiladigan uquv materiali bir vaqtning uzida matn, audio, video, grafika, musiqa va animatsiya kurinishida ta'sir etilsa, materialni qabul qilish va xotirada saqlanishi ortadi. Bu «multimediaviy xujum» uslubining asosiy mazmuni xisoblanadi.

«Multimediaviy xujum» uslubidan mashg'ulotning yangi materialni urgatish qismida qullaniladi. «Multimediaviy xujum» uslubining afzalligi quyidagilardan iborat:

- multimediiali didaktik vosita jozibali, ta'sirchan, xarakatchan (dinamik xolat) samara beradi;



Learning and Sustainable Innovation

- uquv materialining multimediali kurinishda taqdim etilishi natijasida bola miyasining ikkala yarim shari bir vaqtda ishlaydi;
- multimediyaviy xujum natijasida bolalarning diqqatlari barqarorlashadi, fikrlashlari ortadi va uquv materiallari ko'proq qabul qilinadi;
- guruxlardagi bolalarning faolliklari ortadi;
- multimediali didaktik vosita interfaol dasturiy maxsulot xisobida ma'lum bir miqdorda vaqt tejaladi, tejalgan vaqt xisobiga bolaga qushimcha ma'lumot berish imkoniyati yaratiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga muljallangan multimediali texnologiya fikrimizcha, an'anaviy texnologiyalarga nisbatan quyidagilar bilan farqdanadi:

- bolalarning psixologik jixatlari;
- bolalarning yoshi (6-7 yosh);
- kompyuterli mashg'ulotning davomiyligi (15 daqiqa);
- materialning bolalarga mosligi (multimedia shaklida);
- materialning xajmi (30 daqiqaga muljallangan);
- materialning murakkablik darajasi (bolalar uchun sodda materiallar tanlanadi);
- ularning faollik darajalari.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yaratilgan multimediali kompyuter texnologiyasi variantida texnologik yondashuv quyidagicha kechadi: maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchisining urganiladigan materialni uzlashtirishini qulaylashtirish va osonlashtirish maqsadida material bir-biri bilan bog'liq qismlar, bulaklarga ajratiladi, sungra ta'limdan muljallangan natija olish uchun amallar ketma-ket bajarilishi va loyixalashtirilgan ishlar poyoniga yetkazi-lishi ko'zda tutiladi. Eng muximi, ushbu texnologiyada urganiladigan material multimedia asosida taqdim etiladi.

Bola miyasiga bunday «multimediyaviy xujum» natijasida bolaning uzlashtirish darajasi ko'tarilib, mashg'ulot samaradorligi oshadi. Multimedyaning yuqorida sanab utilgan tashkil etuvchilarini kompyuterda ishlov berish (texnologik jarayon) natijasida, ularning bitta paketda (diskda) joylashtirilishi multimedia texnologiyasining mazmunini aks ettiradi.

Ta'limiy multimedia texnologiyasida ta'lim jarayoni «multimediyaviy xujum» metodi asosida amalga oshiriladi, ya'ni bu jarayonda maktabgacha ta'lim muassasalarining tarbiyalanuvchilarining miyasiga bir vaqtning uzida multimedyaning kamida uchta tashkil etuvchisi - audio, video va animatsiya orqali ta'sir etilishidan iborat. Shunga ko'ra, ta'limiy multimedia texnologiyasini maktabgacha ta'lim muassasalarining



ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishga mo'ljallangan innovatsion texnologiya deb qarashimiz mumkin.

Multimediali didaktik vositalar ta-biyalanuvchi taffakurini rivojlantirish, aqliy faoliyatini oshirish, diqqatini barkarorlashtirish, idroklarini faollashtirishga qaratilgandir.

Bolalar ongida tabiatdagi guzallikdan zavq olishni tarbiyalash, tevarak-atrofnii toza va ozoda saqlash, xayvon va qushlarga ozor bermaslik, gullar, ut-ulanlarni payxon qilmaslik, daraxt shoxlarini sindirmaslik, qush uyalari, chumolilarning inini buzmaslik kabi xislatlarni shakllantirilishi kerak.

So'nggi yillardagi ta'lim-tarbiya mazmuni, shakli, vosita va metodlarini yangilashga e'tibor berish, maktabgacha ta'limga oid innovatsiyalarni izlash, uni ta'lim-tarbiya jarayoniga, tarbiyachilarning pedagogik faoliyatiga kiritib borishda malaka oshirish tizimining ahamiyati kattadir. Ayniqsa, pedagogik jarayonga ilg'or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish, innovatsiyalarni joriy etish, o'qituvchi va tarbiyachilarni zamonaviy usullardan foydalanish, kunikma va malakalari bilan qurollantirish malaka oshirish tizimi oldiga quyilgan vazifalar zamirida amalga oshirilmoqda.

Pedagogika yunalishida tatbiq qilinishi lozim bulgan muxim masala borki, u xam bulsa tarbiyachilarning pedagogik jarayonni zamonaviy usullar asosida maqsadli, tizimli va natijalarni bashorat qila olish orqali metodik jixatdan turni tashkil etishlarini ta'minlashdir.

Interfaol uyin usullari hozirgi kunda ta'lim isloxotlaridagi ustuvor jixati va pedagogik muammolarni xal etishdagi roli, ta'lim samaradorligini ta'minlovchi muxim omillardan ekanligini e'tirof etish joizdir. Pedagogik texnologiya nazariyasining muxim jixati xar bir pedagogning uz imkoniyati darajasida, shuningdek, turli yoshdagi ta'lim oluvchilarning uziga xos xususiyatlarini ino-batga olgan xolda, o'quv faolligini oshirish maqsadida ta'lim jarayonida interfaol metodlardan samarali foydalana olish bilan belgilanadi.

Xozirgi vaqtda dunyo psixologlari ta'kidlaganidek, «indigo» bolalar dunyoda sodir bulayotgan voqea-xodisalarni kattalardanda tez sezmoqdalar. Shuning uchun bugungi kun tarbiyachilari oldida bir qator dolzarb vazifalar turibdi. Shulardan biri ta'lim jarayonida interaktiv usullardan foydalanishdir. «MTM tarbiyachilari qaysi interaktiv uyin usullardan qanday foydalana oladi?» degan xaqli savol tugiladi.

«...Pedagog bolalarimizga zamonaviy bilim bersin deb talab qilamiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiyning uzi ana shunday bilimga ega bulishi kerak.

Tarbiyachilarni interaktiv oquv usullardan oqilona, maqsad va sharoitga muvofiq



tarzda didaktik tamoyillarga asoslangan xolda foydalanishga urgatish bugungi kunda zamonaviy pedagogikaning muxim masalalaridan biri xisoblanadi.

MTM tarbiyachilari uz faoliyatlariga zamonaviy usullarni maktabgacha ta'limga oid ilmiy maqolalar, risolalar, maxalliy ilg'or tajribalarni urganish orqali tatbiq etib kelmoqdalar. Ba'zan, interaktiv usullarning mohiyati va maqsadini tuluq anglamagan xolda qo'llamoqdalar. Shuning uchun malaka oshirish jarayonining uzida interaktiv uquv muxiti yaratilib, tarbiyachilar uning bevosita ishtirokchisiga aylansalar, ya'ni xar bir interfaol usulni bevosita uzlaridan o'tkazib o'zlashtirsalar, ushbu usullarni maktabgacha ta'limga moslashtirib, amaliyotga tatbiq etishlari shunchalik oson va qulay kechadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida interaktiv usullardan «Aqliy xujum», «Rolli uyin», «Kichik guruxlarda ishlash», «Baxs-munozara», «Galereyaga sayr», «Klaster», «Bumerang», «Enerjayzerlar»dan foydalanish mumkin. Tarbiyachi mashg'ulot o'tkazish jarayonida mashg'ulotning boshi va oxirida mavzu yuzasidan bolalarning tushunchalarini aniqlash xamda olgan bilimlarini mustaxkamlash uchun aqliy xujum usulidan foydalanishi maqsadga muvofiq. «Kichik guruxlarda ishlash» bolalarning uzaro muloqot va fikr almashuviga asoslanadi. Bunda guruxda taxlil qilish, tekshirish asosida berilgan mavzu ishlab chiqiladi.«Rolli uyinlar»da bolalarga biror muammoli vaziyat beriladi.Bolalar bu metod yordamida real xayot xolatlarini jonlantiradilar. Baxs-munozara metodida bolalarga bir kun oldin mavzu beriladi. Bolalar savollarga ota-onalaridan surab javob topib keladilar xamda berilgan savollarga javoblar «baxs-munozara» asosida olib boriladi.

Xozirgi kunda pedagogik texnologiya xaqidagi aniq, tushuncha va tasavvurlar bor bulsada, maktabgacha ta'lim muassasalari pedagoglarida texnologiyani metodikadan farqlay olmaslik kabi muammolar uchraydi. Vaxolanki, ular orasida jiddiy farqlar mavjud bulib, quyida ular xaqida nazariy ma'lumotlar berilgan.

Pedagogik texnologiya - bolani mustaqil ijod qilish, bilim olish, fikrlashga urgatishni kafolatlaydigan jarayondir.

Metodika - pedagogning bilimi, ko'nikmasi, maxorati, shaxsiy sifatlari, temperamentiga bog'liq bulib, ma'lum shaxs, pedagog uchun qulay bulgan o'qitish usullari va yullari majmuidir. U aloxida metodikalarga ajratiladi. Pedagogika fani ma'lum uquv fanlarini uqitish qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Masalan, tillar metodikasi, arifmetika metodikasi va shu kabilar.

Metodikaning pedagogik texnologiyadan farqini tushunish va amalda xar ikkisidan unumli foydalana bilish talab etiladi. Ular orasidagi farqlar 1-jadvalda keltirilgan.

«Pedagogik texnologiya» tushunchasi xususiy fanlar va maxalliy darajalardagi uqitish



metodikalari tushunchasi bilan mos keladigan xususiy darajadagi pedagogik texnologiyalarga tegishli.

Texnologiyalarda ko'proq protsessual, miqdoriy va xisob-kitob komponentlari ifodalansa, metodikalarda maqsad, mazmun, sifat va variantli yunaltiruvchi tomonlari ko'proq ifodalanadi. Texnologiya metodikalardan uzining qayta tiklanuvchanligi, natijalarining turg'unligi, ko'plab «agar»lar (agar tarbiyachi iste'dodli, agar bolalar qobiliyatli bulsa, agar yaxshi ota-onalar bulsa...) yuqligi bilan farq qiladi. Ya'ni, texnologiya tegishli tayyorgarlikka ega bulgan xamma mutaxassislar tomonidan qayta tiklash va qo'llash mumkinligi bilan juda xam individual bulgan metoddan farq qiladi. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, ta'lim samaradorligi va sifati borasidagi turli mulohazalar ham bizni yana bir bor tafakkur qilishimizga asos bo'la oladi. Zamonaviy interfaol o'yin texnologiyalaridan foydalanish hozirgi zamon talabi bo'lib, bundan muntazam ravishda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Yuqorida aytilganlarning xammasi uz-uzidan amalga oshmaydi albatta. Bu ishlarning, yutuqlarning zamirida chuqur izlanish, katta mehnat turibdi. Bular minnat uchun emas, vaziyatni to'g'ri baxolash maqsadida aytilmoqda.

Adabiyotlar:

1. Barkamol avlod orzusi. To'plam. / Tuzuvchilar Sh. Quronov, X. Saidov, R. Axliddinov. - T.: «Shark», 1999.
2. Ramakayeva Ye. Odarennye i deti indigo: kak ix raspoznat. // «Boshlang'ich ta'lim», 2016, 3-son.
3. «Uzbekistonda maktabgacha ta'lim tizimi».
4. Ishmuxamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. Amaliy tavsiyalar. - T.: «Iste'dod», 2008.
5. Yuldoshev J., Usmonov S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. - T.: «Fan va texnika», 2008.
6. Ishmuxamedov R., Abdukodirov A., «Iste'dod», 2008. -96-b. Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. Amaliy tavsiyalar.
7. Alimtayeva M. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan tajriba ishlarini tashkil etish. «Uzbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiyalashtirish yuksak ma'naviyatli kelajak avlodni tarbiyalash negizidir» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. - T., 2009. -80-b.
8. Uzbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari tug'risida»gi PK-2707-son qarori. Uzbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to'plami, 2017 y., 1-son, 11-modda, 35-son, 923-modda.



9. Abduqodirov A.A., Begmatova N.X. Maktabgacha ta'lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti (uquv-uslubiy qullanma). - Qarshi: «Nasaf», 2011. -163-b.

10. Begmatova N.X. Metodika provedeniya kompyuternyx obrazovatelnyx igr v doskolnyx uchrejdaniyax. Texnologii i metodiki v obrazovanii, Voronej, 2011, № 3. -S. 4.